

**Toshkent davlat yuridik universiteti talabalari hamda universitet qoshidagi
M.S. Vosiqova nomidagi akademik litsey o'quvchilariga Xadicha
Sulaymonova nomidagi stipendiya ajratish to'g'risidagi nizom**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-son O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasining 2022-yil 8-noyabrdagi "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tengligiga erishish strategiyasi va uni 2021-2022-yillarda amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi ijrosi to'g'risida"gi 128-son qarori 5-bandiga muvofiq Toshkent davlat yuridik universiteti (keyingi o'rinlarda – Universitet) talabalari hamda Universitet qoshidagi M.S. Vosiqova nomidagi akademik litsey (bundan buyon matnda – akademik litsey o'quvchi) o'quvchilariga akademik Xadicha Sulaymonova nomidagi stipendiyani (bundan buyon matnda – stipendiya) tayinlash tartibini belgilaydi.

2. Stipendiya akademik Xadicha Sulaymonovaning ilm-fan rivoji, huquqiy davlat barpo etishdagi harakatlari, ibratli hayot yo'li, ilmiy-madaniy merosini o'rganish va targ'ib qilishda faollik ko'rsatayotgan, fanlarni yuqori natijalar bilan qayt etib kelayotgan, ijtimoiy faol va jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquqiy bilimlarini oshirishda munosib ishtirok etib kelayotgan Universitet talabalari va akademik litsey o'quvchilariga taqdim etiladi.

3. Stipendiya uchun o'tkaziladigan tanlovga universitetning bakalavriat yo'nalishi 2-3-bosqichida tahsil olayotgan talabalar hamda akademik litseyning 1-bosqich (1-semestr natijalariga ko'ra) o'quvchilari ishtirok etishlari mumkin.

4. Stipendiya taqdim etish uchun universitet talabalariga **uchta**, akademik litsey o'quvchilariga esa **bitta** kvota ajratiladi.

5. Davlat stipendiyalari, Prezident granti hamda universitet faoliyati bilan bog'liq tarzda e'lon qilingan stipendiyalar ("Adliya vazirligi", "Jadid tafakkuri", "G'afur G'ulom", "Toshkent davlat yuridik universiteti") hamda grantlar ("Adliya vazirligi", "Toshkent davlat yuridik universiteti")ni qo'lga kiritgan talaba va o'quvchilar ushbu stipendiya uchun o'tkaziladigan tanlovda ishtirok eta olmaydi.

6. Bir talaba faqat bir marotaba ushbu stipendiyani qo'lga kiritishi mumkin. Ushbu stipendiyani qo'lga kiritgan talabalar keyin yil ham stipendiya uchun o'tkaziladigan tanlovda ishtirok eta olmaydi (akademik litseyda o'qishi davomida stipendiyalarni qo'lga kiritgan o'quvchilar keyinchalik universitetda o'qishini davom ettirishi bilan bog'liq holatlar bundan mustasno).

7. Akademik Xadicha Sulaymonova nomidagi stipendiya tayinlash bilan bog'liq jarayonlarning ishchi organi Ma'naviyat va ma'rifat markazi bo'lib hisoblanadi.

2-bob. Stipendiya uchun tanlov o'tkazish tartibi va muddatlari

8. Stipendiyaga munosib nomzodlarni saralash uchun universitet rektorining tegishli buyrug'i bilan universitet rahbariyati, xodimlar, professor-o'qituvchilar, faol talabalar hamda hamkor tashkilotlar vakillaridan iborat tanlov komissiyasi tuziladi. Tanlov komissiyasiga Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor rahbarlik qiladi.

9. Har yili 15-may sanasiga qadar talaba va o'quvchilar stipendiya uchun o'tkaziladigan tanlovda ishtirok etish uchun elektron tarzda ro'yxatdan o'tadilar.

10. Stipendiya uchun o'tkaziladigan tanlovda ishtirok etish uchun nomzodlar quyidagi minimal talablarni bajargan bo'lishi talab etiladi:

umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi oldingi o'quv semestri davomida 80 va undan ortiq foizni (o'rganilayotgan davrdagi modullar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari yig'indisini o'tilgan modullar umumiy soniga bo'lish orqali aniqlanadi) tashkil etishi (bunda o'rganilayotgan davrda nomzod fanlardan akademik qarzdor bo'lmasligi lozim);

universitet talabalari o'qishi davomida akademik Xadicha Sulaymonovanning ilm-fan rivoji, huquqiy davlat barpo etishdagi harakatlari, ibratli hayot yo'li, ilmiy-madaniy merosiga oid kamida 1 ta ilmiy yoki ommabop maqola hamda huquqshunoslik yo'nalishlari bo'yicha kamida 2 ta ilmiy yoki ommabop maqola chop ettirganligi;

akademik litsey o'quvchilari o'qishi davomida akademik Xadicha Sulaymonovanning ilm-fan rivoji, huquqiy davlat barpo etishdagi harakatlari, ibratli hayot yo'li, ilmiy-madaniy merosiga oid kamida 1 ta ilmiy yoki ommabop maqola chop ettirilganligi;

nomzodlarning o'zlari tahsil olayotgan ta'lim muassasalarida belgilangan ichki-tartib qoidalari hamda Odob-axloq kodeksida belgilangan qoidalarga rioya qilishi va namunali xulq-atvori (bunda o'qish davrida nomzodga nisbatan ta'lim

muassasasi rahbarining tegishli buyrug'i bilan intizomiy chora qo'llanilmagan bo'lishi kerak).

Ushbu minimal talablarni bajarmagan nomzodlar stipendiya uchun o'tkaziladigan tanlovda ishtirok eta olmaydi.

11. Stipendiya uchun 2-bosqichli tanlov o'tkaziladi.

Birinchi bosqich. Test sinovlarini bajarish bosqichi.

Ushbu shartda ishtirokchilar Xadicha Sulaymonovanning ilm-fan rivoji, huquqiy davlat barpo etishdagi harakatlari, ibratli hayot yo'li, ilmiy-madaniy merosi hamda huquqshunoslik yo'nalishlari bo'yicha shakllantirilgan test sinovlarini bajaradilar. Bunda universitet talabalariga 50 ta, akademik litsey o'quvchilariga 30 ta test topshiriqlari beriladi.

Test sinovlari bazasi tanlov komissiyasi tomonidan tasdiqlanadigan ishchi guruh tomonidan universitet talabalari hamda akademik litsey o'quvchilari uchun alohida-alohida tuziladi.

Test sinovlarini o'tkazish joyi hamda tartibi Tanlov komissiyasi tomonidan belgilanadi hamda ishtirokchilarga ma'lum qilinadi.

Test sinovlarining har biriga 0,5 daqiqadan vaqt beriladi hamda har bir to'g'ri javob uchun ishtirokchi 1 ballni qo'lga kiritadi.

Test sinovlari har yili 25-may sanasiga qadar o'tkaziladi.

Test sinovlarida eng yuqori natijaga erishgan universitetning 9 nafar talabalari hamda akademik litseyning 3 nafar o'quvchilari tanlovning keyingi bosqichiga ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi (ballar teng bo'lib qolgan taqdirda ishtirokchilar soni oshishi mumkin).

Ikkinchi bosqich. Ishtirokchilarning ijtimoiy faolliklarini baholash sharti.

Ushbu shartda tanlov komissiyasi mazkur nizomning 10-bandida belgilangan minimal talablar yuzasidan ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni tahlil qilish bilan birga ularning quyidagi yo'nalishdagi faolliklarini taqdim etgan elektron ma'lumotlari orqali me'zonlar asosida baholaydi:

ijtimoiy faolligi – tanlov va loyihalarda, targ'ibot tadbirlarida ishtirok etib kelayotganligi, universitet, mahalliy, respublika va xalqaro miqyosdagi musobaqalarda natija ko'rsatib kelayotganligi;

tashabbuskorligi – o'zining tashabbusi bilan universitet ijtimoiy hayotida talabalar uchun foydali bo'lgan loyiha va tanlovlarni yo'lga qo'yganligi, universitet maqsad va vazifalari (missiyasini) keng targ'ib qilib kelayotganligi, aholining huquqiy bilimlarini oshirib, huquqiy islohotlarda faol ishtirok etib kelayotganligi;

ilmiy-ijodiy faoliyat bilan tizimli shug'ullanib kelayotganligi (10-banddagi ilmiy-ommabop maqolalar soni hamda mazmuni ham tahlil qilinib, inobatga olinadi).

Mazkur bosqichda ishtirokchilarning faolliklarini baholash uchun tanlov komissiyasi tomonidan baholash me'zonlari tayyorlanib tasdiqlanadi hamda talabalarga e'lon qilinadi.

Shu bilan birga, talabalarning bilim darajasi hamda ijtimoiy faolliklarini qo'shimcha aniqlash maqsadida tanlov komissiyasi yig'ilishiga ishtirokchilar chaqirilishi mumkin.

Ushbu bosqich har yili 28-may sanasiga qadar o'tkaziladi.

12. Tanlov komissiyasi tomonidan stipendiyani ajratish masalasini ko'rib chiqilayotganda (2-bosqich yakuniy natijalarini aniqlashda ishtirokchilarning imkoniyatlari teng kelib qolganda) to'liq davlat taminotida bo'lgan yetim, ota-onasi vafot etgan chin yetim, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan hamda 1 va 2-guruh nogironligi bo'lgan nomzodlarga ustunlik berilishi mumkin.

13. Tanlov komissiyasi 1-bosqich va 2-bosqich natijalari yuzasidan barcha ishtirokchilarga atroflicha tushuntirish beradi hamda ishtirokchilarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi.

14. Tanlov komissiyasi yig'ilish bayoni bilan nomzodlar orasidan munosiblari tavsiya etiladi.

3-bob. Stipendiyani tayinlash

15. Tanlov komissiyasining stipendiya tayinlash to'g'risidagi tavsiyasi universitet rektoriga taqdim etiladi. Universitet rektori tavsiya etilgan nomzodlarga stipendiya tayinlash yoki rad etish haqida yakuniy qaror qabul qiladi hamda rektor buyrug'i shaklida rasmiylashtiriladi.

16. Stipendiya tayinlash bo'yicha universitet rektorining buyrug'i qabul qilingandan so'ng ertangi ish kunida stipendiantlar to'g'risidagi ma'lumotlar universitet va akademik litseyning Internetdagi rasmiy sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida joylashtiriladi.

17. Stipendiyani qo'lga kiritgan talaba va o'quvchilarga universitet rektori tomonidan imzolanadigan belgilangan shakldagi guvohnoma har yili Akademik Xadicha Sulaymonova tavallud topgan sana oldidan tantanali vaziyatlarda topshiriladi.

18. Stipendiyani qo‘lga kiritgan talaba va o‘quvchilarga keyingi o‘quv yili (sentyabr–iyun oylari) davomida bir marta belgilanadigan miqdorga qat’iy rioya qilgan holda stipendiya tayinlanadi hamda oyma-oy to‘lab boriladi.

19. Xadicha Sulaymonova nomidagi stipendiyasining miqdori universitet talabalari uchun oliy ta’lim muassasalari talabalariga belgilangan bazaviy stipendiyaning bir yarim baravari miqdorida, akademik litsey o‘quvchilari uchun esa oliy ta’lim muassasalari talabalariga belgilangan bazaviy stipendiya miqdorida belgilanadi.

20. Xadicha Sulaymonova nomidagi stipendiyani tayinlash universitetning byudjetdan tashqari (to‘lov-kontrakt) mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

21. Stipendiyani qo‘lga kiritgan akademik litsey o‘quvchilariga belgilangan miqdordagi pul mablag‘lari universitet hisob-varag‘idan akademik litseyning hisob-varag‘iga o‘tkazib beriladi.

O‘z navbatida universitet rektorining akademik Xadicha Sulaymonova nomidagi stipendiyani tayinlash haqidagi buyrug‘iga muvofiq akademik litsey o‘quvchisiga akademik Xadicha Sulaymonova nomidagi stipendiya tayinlash to‘g‘risidagi buyrug‘i qabul qilinadi hamda stipendiya to‘lanadi.

22. Mazkur stipendiya uni qo‘lga kiritgan talaba va o‘quvchilarga 5-bandda ko‘rsatilgan stipendiya va grantlardan tashqari boshqa rag‘batlantirishlarga monelik qilmaydi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

23. Nomzodlar Tanlov komissiyasining qaroridan norozi bo‘lgan taqdirda ko‘rib chiqish uchun universitet rektoriga murojaat qilishlari mumkin.

24. Stipendiyani qo‘lga kiritgan talaba va o‘quvchilar stipendiya tayinlangan davrda o‘quv intizomini, ichki-tartib qoidalari va Odob-axloq kodeksi talablarini qo‘pol ravishda buzgan taqdirda Ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda akademik litsey rahbariyatining taqdimnomasi asosida rektor buyrug‘i bilan ushbu stipendiyadan mahrum etilishi mumkin.

**Akademik Xadicha Sulaymonova nomidagi stipendiya uchun o'tkaziladigan tanlov
jarayonlarini tashkil etish, nomzodlarning hujjatlarini ko'rib chiqish va tavsiya
etish bo'yicha Tanlov komissiyasi tarkibi**

- | | | | | |
|-----|----------------------------|-------------|---|---|
| 1. | Xashimhonov
Mo'minovich | Axror | – | Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar
bo'yicha birinchi prorektor, Tanlov komissiyasi
rahbari; |
| 2. | Baratov
Shamsiyevich | Azim | – | Kriminalistika va sud ekspertizasi kafedrası
mudiri, tanlov komissiyasi raisi o'rinbosari; |
| 3. | Maxmudov
Xayitovich | Sherali | – | TDYU qoshidagi M.S. Vosiqova nomidagi
akademik litsey ijrochi direktori, a'zo; |
| 4. | Boboyev
Boboyevich | Halimboy | – | Fan arbobi, TDYU faxriylar kengashi raisi, a'zo; |
| 5. | Lavozimiga ko'ra | | – | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
mas'ul xodimi, a'zo; |
| 6. | Sattorov
Ulashovich | Umidullo | – | Yoshlar ishlari agentligi boshqarma boshlig'i,
a'zo (<i>kelishuv asosida</i>); |
| 7. | Ergashev
Abdurasulovich | Ikrom | – | Ilmiy boshqarma boshlig'i, a'zo; |
| 8. | Po'lotov
Shuhratovich | Sherzod | – | Ma'naviyat va ma'rifat markazi direktori, a'zo; |
| 9. | Tulaganova
Zaxitovna | Gulchehra | – | Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası professori,
a'zo; |
| 10. | Niyozova
Saparovna | Salomat | – | Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga
qarshi kurashish kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Xamidov
Xamidovich | Baxtiyorjon | – | Kriminalistika va sud ekspertizasi kafedrası
katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | Isoqov Furqat
o'g'li | Ahmadjon | – | O'zbekiston yoshlar ittifoqining TDYUdagi
boshlang'ich tashkiloti yoshlar yetakchisi,
3-bosqich talabasi, a'zo; |
| 13. | Ochilov
Ravshan o'g'li | Shohruh | – | Ma'naviyat va ma'rifat markazi uslubchisi,
tanlov komissiyasi kotibi |

Izoh: Tanlov komissiyasi a'zolari boshqa ishga o'tganda yoki ishdan bo'shatilganda ularning o'rniga ushbu lavozimga tayinlangan xodimlar komissiya tarkibi kiritiladi.